

JADIDLARNING ISLOHOTCHILIK VA MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI TARIXI – O'QUVCHILAR DUNYOQARASHIDA MUHIM OMIL (5–9 SINIF DARSLIKLANI MISOLIDA)

Ahmedova Dilfuza Usmonovna,

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining islohotchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda ularning umumta'lim maktablarining 5–9 sinf darsliklarida yoritilishi tahlil qilinadi. Jadid namoyandalarining ta'lim tizimini yangilash, milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilish va jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan faoliyati yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil ekani ilmiy asoslanadi. Maqolada 7-sinf «O'zbekiston tarixi» va 5-sinf «Adabiyot» darsliklarida jadidchilik mavzusining o'rni, mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ta'lim islohoti, darslik, pedagogik tahlil, tarix.

Аннотация. В данной научной статье анализируются реформистские и просвещенные идеи движения джадидов, сформировавшегося в Туркестане в конце XIX и начале XX веков, и их освещение в учебниках для 5-9 классов средних школ. Научно обосновано, что деятельность представителей джадидов., направленная на обновление системы образования, продвижение идей национального возрождения мировоззрения молодого поколения. В статье научно анализируется место, содержание и педагогическое значение темы джадидов в учебниках для 7 класса «История Узбекистана» и 5- классов «Литература».

Ключевые слова: модернизм, просвещение, национальное пробуждение, реформа образования, учебник, педагогический анализ, история.

Abstract. This scientific article analyzes the reformist and enlightened ideas of the Jadid movement, which was formed in Turkestan at the end of the 19th and of the 20th centuries, and their coverage in textbooks for grades 5-9 of secondary schools. It is scientifically substantiated that the activities of Jadid representatives aimed at renewing the education system, promoting the ideas of national revival and modernizing society are an important factor in shaping the worldview of the younger generation. The article scientifically analyzes the place, content and educational significance of the Jadid topic in the textbooks for grades 7 and 5. "History of Uzbekistan" and "Literature".

Keywords: modernism, enlightenment, national revival, educational reform, textbook, pedagogical analysis, history.

Kirish va dolzarbligi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda ma'rifatparvar ziyolilar jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'li ilm-fan va zamonaviy ta'lim ekanini anglab yetdilar. Ana shu jarayon natijasida jadidchilik harakati shakllandi. Jadidlar xalqni savodli qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish, milliy matbuotni rivojlantirish hamda jamiyatni madaniy jihatdan yangilashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Bu harakat Turkistonda milliy uyg'onish jarayonining muhim bosqichiga aylandi.

Bugungi kunda yurtimizda sodir bo'ladigan ta'lim jarayoni o'z-o'zidan yuz bermaydi. U olimlar tomonidan yaratilgan falsafiy ahamiyatga molik bo'lgan kontseptual nazariy fikrlarga asoslangan holda odamlarning faol harakatlari tufayli sodir bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Umumiy o'rta va maktabdan

tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish kerak" – deb ta'kidlagan edi [1]. Zero, shunday ekan ta'lim jarayonini rivojlantirishning kontseptual asoslarini ta'lim jarayonida ta'lim-qadriyat sifatida jamiyatning ma'naviy hayoti bilan ham uzviy bog'liqlikda shakllanib, rivojlanib, o'zgarib boradi:

- a) o'zligini anglash;
- v) millatning mental xususiyatlarini;
- s) avlod-ajdodlarning tarixiy xotirasiga sadoqatini;
- d) Ona Vatanga bo'lgan sadoqatini, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini namoyish qila olish ruhida ta'lim berish jarayonining qanchalik uyg'un tarzda olib borilayotganligi yuzaga chiqadi.

Bugungi kunda jadidlar merosini o'rganish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarining 5–9 sinf darsliklarida jadidlar faoliyatini o'rganish o'quvchilarda milliy ong va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlariga diqqat qiling: "Biz, Turkistonliklar o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi arablar Arabistonini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z Vatannarini tashlab hijrat qilurlar edi". Qadrlil o'quvchi, nima uchun ota-bobolarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga surgan? [2].

Metodlar va o'rganilish darajasi. Ma'lumki, pedagoglar bugungi ta'lim sohasida mustaqillik, milliy mafkura, Vatan, kabi muqaddas qadriyatlarni maktab o'quvchilariga keng va izchil tarzda teran tushuntirib bormoqda.

Binobarin o'sib kelayotgan yangi avlod dunyoqarashida jadid bobolarimiz qilgan jasoratli ishlari milliy g'urur tushunchasida, milliy iftixor bo'lib namoyon bo'lmoqda. Bu tuyg'uni yanada rivojlantirish, barqaror e'tiqodga aylantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Zero, mustaqillik mohiyatini teran anglash, Vatanni sevish, ardoqlash, faxrlanish, Vatan sharafini himoya qilish uchun yoshlar nimalarga e'tibor qaratish kerakligini ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlodga singdirish muhim ahamiyatga ega. Jadidchilik harakatining markazida ta'lim islohoti masalasi turgan. Jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etish orqali yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlashni maqsad qilganlar. Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida shunday yozadi: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» [3]. Bu fikr jadidlar uchun tarbiya va ta'lim millat taqdiri bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. O'quvchilarda tarbiya va ta'limning jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunishga yordam

beradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasiga muvofiq shaxs ehtiyojlari hisobga olinadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Munavvarqori Abdurashidxonov jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalari hisoblanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy milliy teatr va matbuot rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning «Padarkush» dramasi orqali jamiyatdagi ma'naviy muammolar ko'tarilgan. Abdulla Avloniy esa pedagogik faoliyati bilan tanilgan. U «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida tarbiya masalalarini ilmiy asosda tahlil qilgan. Jadidlar xalqni ilm-ma'rifatga chorlab, yangi usul maktablarini tashkil etish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan ziyolilar edi.[4]. Bu iqtibos orqali o'quvchilarga milliy tarbiya va bilimga intilish tushunchalari sodda va tushunarli tarzda yetkaziladi. Zamonaviy konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bilim faol dars jarayonida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari. Maktablarda o'quvchilarga millat tarixining shonli sahifalaridan olingan mavzularni yuksak mahorat bilan ko'rsata olish, ularda millat tarixidagi barcha ijobiy, milliy taraqqiyotni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar bilan haqli ravishda faxrlanish tuyg'usini shakllantirish zarur.

Abdurauf Fitrat esa milliy taraqqiyot va mustaqillik g'oyalarini ilgari surgan. «O'zbekiston tarixi» darsligida jadidchilik harakati milliy uyg'onish davrining muhim qismi sifatida talqin qilinadi. «XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati yuzaga keldi. Jadidlar xalqni ilm-ma'rifatga chorlash orqali jamiyat taraqqiyotiga erishishni maqsad qilgan edilar». Bu iqtibos jadidlarning asosiy maqsadi ma'rifat orqali jamiyatni taraqqiy ettirish ekanini ko'rsatadi. 8-sinf adabiyot darsligida jadid yozuvchilarining ijodiga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy haqida quyidagi fikr keltirilgan: «Behbudiy o'z asarlari orqali xalqni ilm-ma'rifatga chaqirgan va milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilgan».

Bu ma'lumot o'quvchilarga jadidlar ijodining tarbiyaviy ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etib, xalqni savodli qilish va milliy madaniyatni rivojlantirishga harakat qilganlar [5]. Milliy uyg'onish va tarbiya mavzusini o'quvchilarga sodda va tushunarli tarzda yetkazadi. Shu bilan birga zamonaviy pedagogikada ta'lim va tarbiyaning integratsiyasi nazariyasi bilan uyg'un. 5-sinf darsliklarida jadidlar faoliyati pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Bu iqtiboslar orqali o'quvchilarda milliy ong, vatanparvarlik, bilimga intilish va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Jadidlar merosini ta'lim jarayonida o'rganish yosh avlodni ma'naviy va intellektual rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. 9-sinf «O'zbekiston tarixi» darsligida jadidchilik harakati siyosiy va ijtimoiy jarayon sifatida tahlil qilinadi. «Jadidlar Turkiston jamiyatini yangilash, xalqni savodli qilish va zamonaviy fanlarni o'qitish orqali millat taraqqiyotiga erishish mumkin deb hisobladilar» fikr jadidlar faoliyatining strategik maqsadi – milliy taraqqiyot ekanini ko'rsatadi. Jadidlar merosini o'rganish o'quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

- milliy ong;
- vatanparvarlik;
- ilm-fanga qiziqish;
- mustaqil fikrlash qobiliyati.

Shu sababli jadidlar faoliyatini ta'lim jarayonida o'rganish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg'onish va ma'rifat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. 5–9 sinf darsliklarida jadidlar faoliyatining yoritilishi yosh avlodda milliy g'urur va bilimga intilishni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun jadidlar merosini ta'lim jarayonida yanada keng o'rganish muhim ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosalar. Jadidlar nafaqat ta'lim sohasida, balki matbuot, teatr va adabiyot orqali ham xalqni ma'rifatga chaqirdilar. Gazeta va jurnallar chiqarish, spektakllar qo'yish orqali ular jamiyatdagi muammolarni ko'tardilar va islohatlar zarurligini tushuntirdilar. 5-9 sinf o'quvchilari uchun jadidlar tarixi juda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu mavzular orqali o'quvchilar:

- Milliy tarix va madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalanadi;
- ilm-fan va ta'limning ahamiyatini anglaydi;
- mustaqil fikrlash va keng dunyoqarashni shakllantirish;
- vatanparvarlik va ma'naviy qadriyatlarga sadoqatni o'rganadi.

Xulosa qilib aytganda jadidlarning islohotchilik va ma'rifatparvarlik faoliyati tarixi yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2019-йил 9-апрельдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори.
2. Q. Yo'ldoshev, S. Qambarova, D. To'xliyeva, N. Yusufjonova, O. Olimjonov. Adabiyot darsligi 1-qism. Yangi nashr. Toshkent-2024. B-9.
3. Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Turon-zamin” Toshkent-2023, 3-бет.
4. Манба: 5-синф “Тарихдан ҳикоялар”, Тошкент, 2021, 87-бет.
5. 5-синф “Тарихдан ҳикоялар”, 2021, 89-бет.